



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

BUYRAK VA SIYDIK YO'LLARINING XIRURGIK KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK ISHI.

Qosimova Bibixonim Sherali qizi

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi
o'qituvchisi

Annotatsiya

Buyrak-tosh kasalligi nisbatan ko‘p uchrab, bir yoki ikki tomonlama boiishi mumkin. Toshlarning buyrakdagi soniga nisbatan yagona buyrak toshi yoki bir necha buyrak toshi farqlanadi. Tojsimon — korall tosh yoki toshlar buyrak kosachalariga o‘sib kirib, davolashda ancha qiyinchiliklarni tug‘diradi. Buyrakdagi toshlar har xil olcham va shakllarga ega bo‘lishi mumkin.

Kalit so’zlar: Oliguriya — diurezning barqaror pasayishi.

Anuriya — siydikning butunlay ajralmay yoki chiqmay qolishi. U buyrak kasalliklari oqibatida organizm sustlashganda, siydik yo‘liga tosh, shilliq tifilib qolganda yoki uni o’sma bosib qo‘yganda, shuningdek qon aylanishi buzilganda yoki reflektor tarzda sodir bo‘lishi mumkin. Normada qovuqning siglmi me’yorida bolganda (200 — 300 ml) qovuq sutkasiga 5-6 marta bo’shatib turiladi.

Pollakiuriya — siydik chiqarish ritmining tezlashuvi, u aksari poliuriya bilan birga uchraydi. Bunday hollarda tez-tez siydik qistashi qovuqning tolishiga bogiiq. Pollakiuriyaning og’riqli va qiynalib siyish

— **dizuriya** bilan birga kechishi qovuq yalliglanganda yoki unda toshlar bolganda shilliq pardasining ta’sirlanishida kuzatiladi.

Proteinuriya (albuminuriya) — siydikda oqsil paydo boiishi soglom kishilarda ham jismoniy charchashdan, ko‘p ovqat yeyishdan, sovqotishdan keyin kuzatilishi mumkin. Ba’zi kishilarda proteinuriya tana vertikal holatda bolganda ro‘y beradi va gorizontal holatda yo‘qoladi (**ortostatik proteinuriya**).

Proteinuriya aksariyat nefrit, piyelonefrit (3—6%) va nefrozda (10— 5Ц%) kuzatiladi.



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

Gemoglobinuriya — siydikda erkin gemoglobin paydo boiishi , eritrotsitlarning jadal yemirilishi (gemoliz)dan dalolat beradi. Bunda siydiq undagi gemoglobin miqdoriga ko‘ra pushti rangdan qora ranggacha bo‘yaladi. Siydikda qon paydo boiishi **gemchaturiya** deyiladi.

Buyrak-tosh kasalligi nisbatan ko‘p uchrab, bir yoki ikki tomonlama boiishi mumkin. Toshlarning buyrakdagi soniga nisbatan yagona buyrak toshi yoki bir necha buyrak toshi farqlanadi. Tojsimon — korall tosh yoki toshlar buyrak kosachalariga o‘sib kirib, davolashda ancha qiyinchiliklarni tug‘diradi. Buyrakdagi toshlar har xil olcham va shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Bu sifatlarni aniqlash amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, potrama ham farq qilinadiki, bunda tosh yoki toshlar ham bitta yoki ikkita buyrakda, siydiq yoilarida hamda qovuqda birdaniga paydo boiishi mumkin.

Buyrak-tosh kasalligi (nefrolitiaz)ning asosiy klinik belgilari quyidagilardir: belda og‘riq boiishi, gematuriya, leykotsituriya, piuriya, dizuriya va mayda toshlarning-siydik bilan chiqishi. Yuqorida ko‘rsatilgan belgilarning boiishi tosh yoki toshchalarining olchami, shakli, joylashgan o‘rni hamda yalligianish jarayoni bor yoki yo‘qligi, shuningdek uning faolligi bilan chambarchas bogiangan.

Kichkina tosh buyrak kosachalarida joylashgan bo‘lsa, uroдинамика kamdan kam izdan chiqadi, demak, og‘riq simillagan tusda boiadi. Harakatchan toshda esa buyrak kosachasi bo‘yni yoki buyrak jomchasi teshigiga tosh tiqilib qolishidan buyrak ichki bosimi oshadi va bunda buyrak sanchigi kuzatiladi. Nefrolitiazda buyrak sanchig‘i ko‘pincha to’satdan boshlanadi, bemorning bel sohasida to’satdan qattiq og‘riq turib, sonning old yuzasiga, chov va qovg‘a, o‘g‘il bolalarda olat va urug‘donlarga, qizlarda taloqqa beradi. Buyrak sanchig‘i xuruji davrida ko‘ngil aynishi yoki qayt qilish kuzatiladi.

Davosi. Nefrolitiazni davolash hozirgi kunda eng dolzarb muam- molardan biri bo‘lib qoldi. Toshning joylashgan o‘rni, shakli, katta- kichikligi, asoratlangan yoki asoratlanmaganligiga qarab ko‘pgina davo usullari mavjud. Bemorlarni dorilar bilan davolash konservativ usul hisoblanadi:

— operativ davolanishga vaqtincha moneliklar bo‘lsa.

Konservativ davo operatsiyaga tayyorlash va operatsiyadan keyingi davrlarda ham qoilaniladi. Ushbu vaziyatda konservativ davo orqali tosh yoki toshlarni operatsiya



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

qilmasdan tushirish, operatsiyadan oldin va keyin har xil asoratlarning oldini olish tushunilishini unutmaslik kerak.

Qovuq kasalliklari Sistit

Qovuqning yalligianishi **sistit** deyiladi. Odatda, siydiq steril boiadi. Qovuqqa infeksiya jomlardan, ular yalligianganda (piyelit), siydiq chiqarish kanalidan (infeksiyaning retrograd tarqalishi va qovuqni kateterlashda) kiradi.

0'tkir va surunkali sistit farq qilinadi. 0'tkir sistit boigan bemor qovuq sohasidagi og'rqidan va tez-tez siyishdan shikoyat qiladi. Siydiq loyqa, unda yiring, ba'zan qon boiadi, ishqoriy reaksiyaga ega. Surunkali sistitda bu hodisalar o'zgargan boiadi. Infeksiya buyrakka tarqalganda bemorning ahvoli birdaniga ogirlashib qoladi.

Davosi. 0'tkir sistitda o'rinda yotish rejimi, qovuqning ta'sirlanishini kamaytirish uchun sut-o'simlikli parhez ovqatlar buyuriladi. Antibiotiklar, uroseptiklar va sulfanilamidlar bilan davo qilinadi. Ko'p suyuqlik ichiriladi. 0'tkir og'riqlar bosilgandan so'ng qovuq kumush nitrat (1:5000), simob oksigianid (1:5000)ning kuchsiz eritmasi bilan yuviladi.

Qovuq toshlari

Qovuqqa kichikroq toshlar siydiq jomlaridan tushishi mumkin, biroq ko'pincha ular o'z-o'zidan hosil boiadi. Epiteliy, shilimshiq, yot jism va boshqalar tosh uchun o'zak boiishi mumkin. Siydiq chiqarish kanalining chandiqli torayishida va prostata bezi adenomasida qovuqdagi dimlanish hodisalari va sistit toshlar hosil boiishiga sharoit yaratadi. Toshlar bitta, ko'p, mayda (bir necha millimetrik keladigan) yoki qovuq bo'shlig'ini toiiq bekitib turadigan darajada katta boiishi mumkin. Kimyoviy tarkibiga ko'ra fosfat, urat va oksalatlilari farq qilinadi.

Qovuq sohasida og'riq, tez-tez siydiq qistashi va siyib boiish bilanoq og'riq paydo boiib, uning jinsiy olat boshchasiga tarqalishi, siydiq chiqarish kanali teshigining tosh, qon laxtasi va shilliq bilan bekilib qolishi natijasida siydiq chiqishining to'satdan to'xtab qolishi qayd qilinadi. Qovuqni metall kateter bilan kateterlashda, metallni toshga urilishida chiqadigan o'ziga xos tovush sevgisi paydo boiadi. Uzilkesil tashxis sistoskopiya, sistografiya va umumiyl rentgenografiyadan keyin qo'yiladi.

Davosi. Qovuqdagi toshlar maxsus asboblar: litotriptor yoki URAT— 1 apparati yordamida maydalanib, so'ngra yuvib turiladi. Davoning boshqa usulida qovuq



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

operatsiya yoii bilan ochilgandan keyin toshlar olib tashlanadi.

Adabiyotlar

xirurgiK Kasalliklar bilan og‘rigan va intensiv terapiyani o‘tayotgan bemorlarda hamshiralik parvarishi M. F. Ziyayeva TOSHKENT «NISO POLIGRAF»2017

Xirurgiya va reanimatsiya asoslari A.J. Hamrayev, A.V. Alimov, T.S. A’zamxo’jayev Toshkent “ILM ZIYO” 2017